

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ANNAXASANOVA IRINA BAXTIYOROVNA

XX–XXI ASR ROSSIYA NAVOIYSHUNOSLIGI: TAHLIL VA TALQIN

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Annaxasanova Irina Baxtiyorovna

XX–XXI asr Rossiya navoiyshunosligi: tahlil va talqin.....3

Annaxasanova Irina Baxtiyorovna

Российское навоиведение XX-XXI веков: анализ и интерпретация.....23

Annaxasanova Irina Baxtiyorovna

Studies of Alisher Navoi in Russian orientalism in the XX-XXI centuries: analysis
and interpretation.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ANNAXASANOVA IRINA BAXTIYOROVNA

XX–XXI ASR ROSSIYA NAVOIYSHUNOSLIGI: TAHLIL VA TALQIN

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) disserasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.2.PhD/Fil2520 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (fil-ik.urdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xallieva Gulnoz Iskandarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Cho‘ponov Otanazar Otajanovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Muxibova Ulfat Uchkunovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

D.Q.G‘ayipov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

S.S.Atajanov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filollogiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

A.D.O‘razboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida keyingi yillarda nafaqat o'zbek xalqining, balki dunyodagi barcha xalqlarning ma'naviy boyligi sanaluvchi, turkiy tilida ijod qilgan buyuk shoir va alloma Alisher Navoiy madaniy merosini o'rganishga va tahlil qilishga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yevropa sharqshunoslarining Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish tarixi bo'yicha ilmiy asarlari yuzaga kelgan. Aslida shoir ijodini o'rganish Yevropada XVII asrda – uning ijod mahsullari nusxalari kirib borganida boshlangan va natijada Yevropaning barcha yirik poytaxtlarida shoirning deyarli barcha asarlarini o'z ichiga olgan Sharq qo'lyozmalari to'plamlarining boy fondi yaratilgan, shoir asarlari qo'lyozmalari kataloglashtirilgan. Ilm-fan, adabiyot va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan yetuk namoyondalarni taqdirlash uchun Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilgan. Buyuk shoirning jamiyat rivoji yo'lini tanlashdagi hanuzgacha o'zining ahamiyatini saqlab qolgan g'oyalari zamonaviy ma'naviy dunyo shakllanishida va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida Alisher Navoiy asarlari yirik sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ushbu ishlar o'rganiladigan muammolar ko'lamli kengligi, keltirilgan faktlarning ishonchliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bugungi kunda Alisher Navoiy asarlarini o'rganish bo'yicha ko'plab ishlar mavjud bo'lib, ular davriy tizimlashtirish va tahlilni talab qiladi, bu esa mazkur dissertatsiyaning dolzarbligini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan buyuk mutafakkir ijodini retsepsiya va talqin qilish kabi masalalarning XX-XXI asr Rossiya sharqshunosligida o'rganilishi katta ahamiyatga ega. Navoiy o'qishlari davom ettirilib, ular doirasida navoiyshunoslikka oid yangi ma'ruzalar muhokama qilinib, ulug' shoir ijodiga bag'ishlangan keng ko'lamli ilmiy tadbirlarni tashkil etish borasidagi ishlar faollashdi. E'tiborlisi, ushbu ilmiy tadbirlarning tashabbuskorlari nafaqat mamlakatimizning ilmiy tadqiqot muassasalari, balki Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlardagi yirik ilm-fan markazlaridir.

O'zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, M.Oybek, M.Shayxzoda, A.Rustamov, A.Hayitmetov, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov kabi mashhur olimlar, shoirlar va navoiyshunoslar shoir asarlarini chuqur o'rganishga hamda targ'ib qilishga ulkan hissa qo'shishgan. Ta'kidlash joizki, "Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti Toshkent davlat universitetining tashkil qilinishi, yurtimiz va bir qator xorijiy mamlakatlarda buyuk allomamizga haykallar o'rnatilishi, asarlari to'liq to'plamining nashr qilinishi madaniy hayotimizda katta hodisa bo'ldi. Shuningdek, poytaxt markazida uning sharafiga atalgan Milliy bog'da adiblar xiyoboni tashkil qilingan. Jonajon Vatanimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va

madaniyatini chuqur o'rganish hamda ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda¹.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari; shuningdek, 2012-yil 20-martdagi PQ-1729-son "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 18-apreldagi PQ-2894-son "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida", 2021-yil 4-fevraldagi PQ-4977-son "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida", 2021-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-noyabrdagi 891-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Alisher Navoiyning noyob badiiy asarlari, xattotlar tomonidan yaratilgan shoirning "Devon"lari nusxalari shoir hayotligida Usmonlilar imperiyasi bilan savdo-iqtisodiy aloqalar natijasida Yevropaga kirib keldi². 1625-yilda Oksford universiteti filologlari tomonidan ularning tahlil qilinishini navoiyshunoslikdagi birinchi va eng muhim qadam deb hisoblash mumkin. Bu yo'nalishdagi navbatdagi keng ko'lamli loyiha Sharl Riu tomonidan 1888–1894-yillarda arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozmalar kataloglarini tuzish bo'lib, unda Alisher Navoiyning bir qancha yirik asarlari ham tilga olinadi³. J. fon Hammer-Purgstall, E.D.Gibb, M.Xartmann, E.Braun,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktyabrdagi PQ-4865 son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/5054929>

² Сатимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении: Дисс.... докт. филол. наук: 10.01.03. – М., 1998. – С. 355.

³ Rieu Ch. Catalogue of the Persian manuscripts. – London, 1883; Rieu Ch. Catalogue of the Turkish manuscripts. – London, 1888; Rieu Ch. Catalogue of the Arabic manuscripts. – London, 1894.

G.M.Meredith-Ouens kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida buyuk adib hayoti va ijodiga oid ilk ma'lumotlarni uchratish mumkin⁴.

XX-XXI asr rus sharqshunoslari Alisher Navoiy asarlarini idrok etish va talqin qilish muammosiga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Jumladan, ilmiy maqolalar chop etildi, dissertatsiyalar himoya qilindi, monografiya va risolalar nashr etildi, ilmiy anjumanlar o'tkazildi, shoir asarlari katalogi tuzildi. Keng ko'lamli ishlar orasida P.Savelyev, M.Nikitskiy, A.N.Samoylovich, V.V.Bartold, E.E.Bertels, A.Borovkov, A.A.Semyonov, A.N.Boldirev, S.A.Volin, S.E.Malov, V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad, A.N.Malexova, I.V.Zaysev va boshqalarning⁵ tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy izlanishlarida Alisher Navoiy shaxsiyatining davlat va adabiy jabhalardagi ahamiyati, turkiy adabiyot va umuman turkiy tillarning shakllanishidagi o'rni haqidagi masalalar o'rganilib, uning ayrim yirik asarlari tahlil qilingan.

Rossiyalik navoiyshunoslar shoir badiiy asarlarini tarjima qilish borasida salmoqli natijalarga erishdilar. Jumladan, mashhur tarjimonlar uning "Layli va Majnun" (S.I.Lipkin), "Farhod va Shirin" (L.Penkovskiy), "Sab'ai sayyor"

⁴ Hammer-Purgstall von J. Arabische, persische und türkische Handschriften. – Wien, 1840.; Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d'extraits tirés des œuvres du même auteur // Journal Asiatique. – Paris, 1861. Volume XVII. – Pp.175-256.; Gibb E.J.W. A history of Ottoman poetry. Vol. I-VI / edited by Edward G. Browne. – London, 1900-1909.; Hartmann M. Čaghataisches // Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients. – Berlin: Universitätsbuchhandlung, 1902. – Heft 2. – 108 p.; Blochet E. Peintures de manuscrits arabes, persans et turcs de la Bibliothèque nationale // Imprimerie Berthaud, – Paris, 1911.; Browne Edward G. A Literary History of Persia. – London: Cambridge University Press, 1928. – Vol. 3. – Pp. 390-508.; Meredith-Owens G.M. Handlist of Persian Manuscripts Acquired by the British Museum 1895-1966. – London, 1968.

⁵ Савельев П. Али Шер Неваи // Энциклопедический лексикон. Т.I. – СПб., 1835. – С.527-528.; Никитский М. Эмир Низам-Эд-Динь-Али Ширъ в государственном и литературном его значении: Магистерская диссертация. – СПб., 1856. – 104 с.; Самойлович А.Н. Четверостишия-туяги Навои // Мусульманский мир. – Петроград, 1917. – Вып. I. – С.10-22.; Самойлович А.Н. Извлечения из трактата по просодии Мир Алишера Навои «Мизан ул авзан» // Восточный сборник. – Кн. I. – СПб., 1926. – С.105-114.; Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь // Сб. «Мир Али Шир». – Л.: Изд. АН, 1928. – С.100-165.; Бертельс Е.Э. Навои и Аттар // Сб. «Мир Али Шир». – Л.: Изд. АН, 1928. – С.24-83.; Боровков А. Изучение жизни и творчества Алишера Навои // Сб. статей «Родоначальник узбекской литературы». – Ташкент: Изд-во Узб. филиала Академии наук, 1940. – С.11-30.; Семенов А.А. Описание рукописей произведений Навои хранящихся в Гос. публичной библиотеке Узбекистана. – Ташкент: Гостехиздат, 1940. – 48 с.; Бертельс Е.Э. Навои и литература Востока // Дружба народов. – М., 1941. – № 6. – С.330-339.; Болдырев А.Н. Алишер Навои в рассказах современников // Сб. статей ИВ АН СССР. – М. – Л., 1946. – С.121-152.; Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка // Алишер Навои. – М., 1946. – С.92-120.; Волин С.А. Описание рукописей Навои в Ленинградских собраниях // Сб. Алишер Навои. – М.: Наука, 1946. – С.203-233.; Малов С.Е. Место Алишера Навои в истории тюркских литератур и языков Средней и Центральной Азии // ИАН. – М., 1947. – Вып.6. – С.475-480.; Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1948. – 272 с.; Болдырев А.Н. Персидские переводы «Маджалис ан-Нафаис» Навои // Учёные записки ЛГУ. – Л., 1952. – Сер. 128. – Вып. 3.; Семенов А.А. Взаимоотношения Алишера Навои и Султана Хусейн-мирзы // Исследования по истории культуры народов Востока. – М. – Л.: Изд. АН, 1960. – С.237-249.; Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в восточных литературах // Ученые записки ЛГУ. Сер. филол. наук, 1961. – Вып. – № 59. – С.86-97.; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том IV. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965. – 499 с.; Конрад Н.И. Средневосточное возрождение и Алишер Навои. – М.: Наука, 1969. – 138 с.; Малехова А.Н. Поэма Алишера Навои «Лисан-ат-тайр» («Язык птиц»): поэтика композиционных и образных средств: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 26 с.; Зайцев И.В. Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях // Каталог. – М.: Рудомино, 2016. – 208 с.; Творческое наследие Алишера Навои и современность. // Сб. докладов Международной научно-практической конференции. – М.: МГУ, 2018.; Рукописи Алишера Навои в собраниях Казани. Каталог к 580-летию великого поэта. Автор-составитель И.Зайцев. – Казань: Юлис, 2021.

(S.I.Lipkin), “Qush tili” (S.Ivanov), “Muhokamat ul-lug‘atayn” (A.N.Malexova), “Saddi Iskandariy” (V.Derjavin), “Hayrat ul-abror” (V.Derjavin) asarlarini tarjima qilishgan⁶.

O‘zbek adabiyotshunosligida A.Navoiy ijodini o‘rganishning qator masalalarini qamrab olgan monografik asarlar mavjud. Shoir ijodiy merosini yoritishda A.Rustamov, A.Haytmetov, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov, M.Xolbekov, A.Qayumov, U.Satimov, G.Xalliyevalarning⁷ ilmiy izlanishlari eng muhim tadqiqotlardan hisoblansa ham, ularning asarlarida XX–XXI asrlar rus navoiyshunosligi masalasi batafsil o‘rganilmagan. Xususan, XXI asr rus navoiyshunosligini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus monografik tadqiqotlar mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Urganch davlat universitetining “Zamonaviy filologiyaning dolzarb muammolari: tarixi, nazariyasi, amaliyoti” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX–XXI asr Rossiya sharqshunoslari – navoiyshunoslarining nashr qilingan eng ahamiyatli tadqiqotlarini to‘liq tahlil va talqin qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Alisher Navoiy ijodining Yevropa va rus sharqshunosligida o‘rganilish tarixini mavjud ilmiy asarlarning alohida jihatlarini qiyoslash orqali yoritish;

XX–XXI asrlardagi rus navoiyshunoslarining ilmiy izlanishlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish va ushbu davrlar vakillarining soha rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash;

XX–XXI asrlar rus navoiyshunosligi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish, aniqlash hamda uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilash;

⁶ Навои А. Лейли и Меджнун. Поэма. Перевод С.И.Липкина. – М., 1943. – 228 с.; Навои А. Фархад и Ширин. Перевод Л.Пеньковского / Под. ред. проф. Е.Э.Бертельса. – М.: Детиздат, 1948.; Навои А. Семь планет. Поэма. Перевод С.Липкина. – М.: Художественная литература 1954. – 396 с.; Алишер Навои. Сочинение в 10 томах. Том 8: Язык птиц. Перевод С.Иванова. Редактор тома Р.М.Маджиди. – Ташкент: Фан, 1970.; Навои А. Суждение о двух языках. Перевод А.Н.Малеховой // Алишер Навои. Сочинения в десяти томах. Том 10. – Ташкент: Фан, 1970. – 208 с.; Навои А. Стена Искандара. Поэма. Перевод со староузбекского В.Державина. – М.: Художественная литература, 1972. – 302 с.; Навои А. Смятение праведных. Поэма. Перевод со староузбекского В.Державина – М.: Художественная литература, 1972. – 289 с.

⁷ Рустамов А. Навоийнинг бадий махорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.; Хайитметов А. Литературная критика Алишера Навои. – Ташкент, 1959.; Хаққул И. Навоийга қайтиш. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2007.; Хаққул И. Навоийга қайтиш. 2-китоб – Тошкент: Фан, 2011.; Хаққул И. Навоийга қайтиш. 3-китоб. – Тошкент: Tafakkur, 2016.; Хаққул И. Навоийга қайтиш. 4-китоб. – Тошкент: Tafakkur, 2021.; Сирожиддинов Ш.С. Наслаждаясь напевами Навои. – Самарканд: Зарафшан, 1996.; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик текстологик таҳлили. –Т.: Академнашр, 2011. – 326 б.; Холбеков М. Француз шарқшунослигида Алишер Навоий ижодининг ўрганилиши ва таржималари. – Тошкент, 2021.; Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Камалак, 1991. – 173 б.; Сатимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении: Дисс. ... докт. филол. наук: 10.01.03. – М., 1998. – 402 с.; Халлиева Г.И. XX аср рус шарқшунослигида ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи: Филол. фан. ... докт. дисс. – Тошкент, 2016. – 284 б.

Alisher Navoiy asarlarining rus tiliga tarjimalarining turli variantlarini qiyoslash va ularni asl nusxasi bilan chogʻishtirish orqali oʻziga xos xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tahlil qilinayotgan davr Rossiya sharqshunoslarining eʼlon qilingan maqolalari, monografiyalari, dissertatsiyalari, shoir asarlari kataloglari, tarjimalari va arxiv materiallari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XX-XXI asr Rossiya navoiyshunosligining oʻziga xos xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, chogʻishtirma va statistik tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX- XXI asr rus navoiyshunoslarining faktik maʼlumotlarga boy boʻlgan ilmiy tadqiqotlari mavjudligi, hozirgi kungacha bu borada fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi dalillangan;

rus adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodiga qiziqish va ilmiy yondashuvning shakllanish bosqichlari va tadrijiy takomili yorqin misollarda isbotlangan;

XX asr rus navoiyshunosligida shoirning nazmiy va nasriy merosini rus tiliga tarjima qilish borasida muhim yutuqlarga, samarali natijalarga erishilgani Rossiya davlatida saqlanayotgan arxiv materiallari asosida aniqlangan va ochib berilgan.

Navoiyshunoslik boʻyicha XX-XXI asr rus filologiya maktabiga xos tadqiqotlar tipologiyasi va xususiyatlari tahlil qilinib, bu boradagi yangi malumotlar ilmiy muomilaga kiritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX–XXI asr Rossiya navoiyshunosligining oʻziga xos jihatlarini tadqiq etish yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar, shuningdek, ishda foydalanilgan lisoniy materiallar tahlili Gʻarb navoiyshunosligi sohasini yangi ilmiy nazariy tushunchalar bilan boyitishi, navoiyshunoslikni qiyosiy aspektda tahlil va talqin qilishdagi ilmiy qarashlarni rivojlantirishi hamda ushbu yoʻnalishda tadqiqotlar yaratishda manba boʻlib xizmat qilishi asoslangan;

Rossiyada Alisher Navoiy ijodiga oid muhim ishlar va Yevropa olimlari tadqiqotlarining qiyosiy tahlili, XX asr va XXI asr navoiyshunosligining asosiy yoʻnalish hamda anʼanalari qiyosi, shuningdek, shoir lirik asarlarini tarjima qilishning XXI asrdagi yoʻnalishlariga oid materiallar “Adabiyotshunoslik”, “Matnshunoslik”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Adabiyotshunoslik va adabiy aloqalar” fanlari boʻyicha mavjud oʻquv qoʻllanmalarini boyitishi; rus navoiyshunosligining asosiy tamoyillarini oʻrganuvchi magistrant, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun ham ilmiy asos boʻla olishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi XX–XXI asr Rossiya navoiyshunosligining tahlili va talqinini belgilashda, nazariy maʼlumotlarni bayon etishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, rus va oʻzbek tillarida tahlilga tortilgan faktik materiallar mukammal zamonaviy metodlar asosida tasnif qilinib, ishonchli nazariy manbalar va adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda tahlil hamda talqin qilinganligi; dissertatsiya ishi

bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi; taklif, tavsiya va xulosalar asosida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiq qilinayotgan davr Rossiya navoiyshunosligining asosiy an'analariga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi; Yevropa va Rossiyadagi tadqiqotlarning qiyosiy tahlili asosida uning o'ziga xosliklarini va rus olimlarining tadqiqotlaridagi ilmiy yutuqlarni aniqlashda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning natijalarini filologiya fakultetlari talabalari uchun adabiyotshunoslik va adabiy aloqalar, matnshunoslik yo'nalishlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, tadqiqot materiallari sohaga doir amaliy ishlanmalar va monografiyalar yaratishda, qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy dolzarb muammolariga oid maxsus kurs va seminarlarni tashkil qilishdagi samaradorligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX–XXI asr Rossiya navoiyshunosligi tahlili va talqini tadqiqi natijasi asosida:

tadqiqot materiallarining madaniyatlararo aloqalarni Alisher Navoiy ijodi fonida o'rganish jarayonida olingan natijalaridan O'zRFA pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpoq filiali tomonidan amalga oshirilgan FA-043429 raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 6-apreldagi 158/1-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha mumtoz janrlarining nazariy masalalarini o'rganish bilan bog'liq materiallar asosida boyigan;

tadqiqotning Yevropa va Rossiya navoiyshunosligi tahlili va talqiniga oid materiallari va ilmiy xulosalaridan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpoq filiali tomonidan amalga oshirilgan FA-F1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 6-apreldagi 159/1-son ma'lumotnomasi). Natijada XX–XXI asr rus navoiyshunosligi tahlili yuzasidan olingan materiallar badiiy matnlarni tadqiq qilish jarayonida, ya'ni qoraqalpoq adabiyoti va folklorini o'rganishda o'z samarasini bergan;

dissertatsiyaning Navoiy asarlarining Rossiya sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarining o'ziga xosliklariga oid materiallaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga qarashli Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining "Najot – bilimda" teleko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-apreldagi 354-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlar yangi materiallar – XX–XXI asr Rossiya navoiyshunosligini o'rganishdagi ilmiy asoslangan dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 18 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 8 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Alisher Navoiy ijodining o'rganilish tarixi**" nomli birinchi bobi uch paragrafdan iborat. Ushbu bobda navoiyshunoslikka oid ilk ilmiy tadqiqotlar, Alisher Navoiy ijodi bo'yicha Rossiyada amalga oshirilgan salmoqli ilmiy ishlar haqida umumiy ma'lumotlar, shuningdek, Navoiy ijodiy merosi mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan Yevropa va rus olimlari tadqiqotlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida "**Navoiyshunoslikka oid ilk ilmiy tadqiqotlar**" o'rganilgan. Alisher Navoiy ijodini rus sharqshunosligida o'rganish tarixini ochib berish uchun bu yo'nalishda rus sharqshunoslari uchun ma'lum bir ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan Yevropa tajribasi bilan tanishish ahamiyatlidir. Jumladan, XVII–XIX asrlarda Yevropa olimlari o'zlarining keng ko'lamli ilmiy izlanishlarini Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishladilar. Olimlar ijodkor asarlari katalogini yaratish, uning ijod mahsullari asosida bibliografik ma'lumotnoma tuzish, asarlarining ayrim lisoniy va adabiy jihatlarini tadqiq qilish kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. Ayniqsa, Ch.Riu, E.D.Gibb, E.G.Braun, E.M.Katremer, F.A.Belin, E.Bloshe, L.Buva, J. fon Hammer-Purgstall, M.Hartmann kabi tadqiqotchilarning ishlarini alohida qayd qilish lozim⁸.

U.Satimovning doktorlik dissertatsiyasida ta'kidlanganidek, Yevropa navoiyshunosligida shoir ijodining turli jihatlarini o'rganish XVII asrda boshlangan, aniqrog'i, bu borada ilk izlanish 1625-yilda Oksford universitetida

⁸ Rieu Ch. *Catalogue of the Turkish manuscripts*. – London, 1888.; Gibb E.J.W. *A history of Ottoman poetry*. – London, 1901.; Browne Edward G. *A Literary History of Persia*. – London: Cambridge University Press, 1928. – Vol. 1; Belin F.A. *Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d'extraits tirés des œuvres du même auteur / Journal Asiatique*. – Paris, 1861. Volume- XVII. – P.175-256; Blochet E. *Catalogue de la collection de Manuscrits Orientaux Arabes, Persans, et Turcs formée par M. Charles Schefer*. – Paris, 1900. – № 1345. – P. 73-75; Hammer-Purgstall von J. *Arabische, persische und türkische Handschriften*. – Wien, 1840; Hartmann M. *Çaghataisches // Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients*. – Berlin: Universitätsbuchhandlung, 1902. – Heft 2. – 108 p.

amalga oshirilgan: olimlar tomonidan Navoiyning tanlangan gʻazallaridan iborat “Devonlar” tahlil qilingan. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar boshlanishining ilk nuqtasi sifatida mashhur shotland sharqshunosi Elias Gibb (1857–1901) yaratgan sharq shoir va yozuvchilari qoʻlyozmalari katalogini ham koʻrsatish mumkin. Keyingi batafsil katalog ingliz sharqshunosi Ch.Riu tomonidan tuzilgan «Catalogue of the Turkish manuscripts» (“Turk qoʻlyozmalari katalogi”) asaridir⁹.

Sharq yozuvchilarining badiiy ijodiga qiziqqan navbatdagi olim «A Literary History of Persia» (“Fors adabiyoti tarixi”)¹⁰ nomli yirik asar muallifi Edvard Granvil Braun edi. Bu asarning 1928-yilda nashr etilgan uchinchi jildida Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlar tilga olinadi.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy ijodi va biografiyasi Fransiya, Germaniya, Irlandiya va boshqa Yevropa davlatlarining yirik ilmiy markazlarida oʻrganilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Rossiyada Alisher Navoiy ijodiga oid muhim ilmiy asarlar”** deb nomlangan. Bu paragrafda tahlilga tortilgan tadqiqotlarda Alisher Navoiy oʻzbek adabiyotining buyuk yozuvchisi, oʻzbek adabiy tilining asoschisi, isteʼdodli shoir, shuningdek, yirik davlat arbobi va olim sifatida gavdalanishi alohida qayd etilgan. Jumladan, rus adabiyotshunosligida navoiyshunoslikka oid ilk original tadqiqot M.Nikitskiyning “Эмир Низам-Эд-Динъ-Али Ширъ в государственном и литературном его значении”¹¹ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasidir. Ish 1856-yilda Peterburg universitetida himoya qilingan va nashr etilgan. Muallif mazkur ilmiy asarida Alisher Navoiy hayoti va adabiy-ijodiy faoliyatiga oid qimmatli maʼlumotlarni oʻsha davrda mavjud boʻlgan manbalarga tayangan holda atroflicha yoritadi.

1857-yilda turk adabiyoti xrestomatiyasi¹² nashr etildi, unda tuzuvchi muallif I.N.Beryozin oʻrta asrlarda saqlanib qolgan turk adabiyoti va sanʼati yodgorliklarini batafsil tahlilga tortgan. Ushbu majmuada Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Vaqfiya”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Kitobi munshaot”, “Mahbub ul-qulub” asarlari haqida ham maʼlumotlar keltirilgan. XIX asrda amalga oshirilgan ushbu ikkita yirik tadqiqot nafaqat Rossiyada, balki butun dunyoda navoiyshunoslikni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qildi. XX–XXI asrlarda M.Nikitskiy va I.N.Beryozin asarlari asosida Rossiyada ham, xorijda ham shoir ijodini talqin va tahlil qilish boʻyicha sezilarli tadqiqotlar olib borilmoqda.

E.E.Bertels oʻzining uzoq ilmiy faoliyati davomida fors-tojik mumtoz sheʼriyatini oʻrganish bilan birga, turkiy shoirlar ijodini ham atroflicha tadqiq qildi, ularning asarlarini forsiyzabon tilidagi sheʼriyat bilan qiyoslab oʻrgandi. Olim Navoiy, Attor, Jomiy va Nizomiyni asarlarini, ularning bayon uslubini qiyosiy tahlil qilib, Alisher Navoiyning original shoir ekanligini, unga nisbatan XX asrda tarqalgan koʻchirmachi sifatidagi qarashlar esa notoʻgʻri ekanligini ishonchli tarzda isbotlab, Navoiy qalamiga mansub asarlar nomlari bilan yuqoridagi shoirlar

⁹ Rieu Ch. Catalogue of the Turkish manuscripts. – London, 1888. – 464 p.

¹⁰ Browne Edward G. A Literary History of Persia. – London: Cambridge University Press, 1928. – Vol. 3. – P. 390-508.

¹¹ Никитский М. Эмир Низам-Эд-Динъ-Али Ширъ в государственном и литературном его значении: Магистерская диссертация. – СПб., 1856. – С. 11

¹² Березин И.Н. Турецкая хрестоматия. – Казань, 1857. – С. 146, 162, 167, 180, 202, 288, 358.

asarlari nomlarining mos kelishini shoirning o'z ustozlari, o'zidan oldin yashab ijod qilgan buyuk shoirlar ijodiga bo'lgan hurmat ifodasi sifatida tushunish kerakligini ta'kidladi.

Uchinchi paragrafda **“Navoiy ijodiy merosining o'rganilishi bo'yicha Yevropa va rus olimlari tadqiqotlarining qiyosiy tahlili”** keltirilgan. Yevropa va rus olimlari tadqiqotlarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatdiki, Navoiy ijodining xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan Rossiyada shakllangan yondashuv Yevropada olib borilgan tadqiqot tamoyillaridan keskin farq qiladi.

Rossiya va Yevropa olimlarining navoiyshunoslikni yanada rivojlantirishga qo'shgan hissasini tushunish uchun keng qamrovli asarlarni solishtirishni maqsadga muvofiq deb bildik. Quyidagi jadvalda olimlarning asosiy yirik ilmiy ishlari keltirilgan:

1-jadval

Yevropa va Rossiya olimlarining ilmiy tadqiqotlarini qiyosiy tahlili

| Ilmiy tadqiqotlar | |
|--|---|
| Yevropa | Rossiya |
| Gibb E.V. “A history of Ottoman poetry”. 6 jildli kitob (1902) | Bartold V.V. “Мир Али Шир”. Monografiya (1928) |
| Brovn Edvard G. “A Literary History Of Persia”. 4 jildli kitob (1928) | Bertels E.E. “Навои и Низами”. Monografiya (1960) |
| Rieu Ch. “Catalogue of the Turkish manuscripts in the British Museum” (1888) | Dmitriyeva L.V. “Каталог тюркских рукописей Института востоковедения Российской академии наук” (2002) |
| Buva L. “Essai sur la civilization timouride”. Ilmiy maqola (1926) | Bertels E.E. “Навои. Опыт творческой биографии. Литературная жизнь эпохи тимуридов”. Monografiya (1948) |
| Belin F.A. “Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d'extraits tirés des œuvres du même auteur”. Ilmiy maqola (1866) | Bertels E.E. “Навои и литература Востока”. Ilmiy maqola (1941) |
| Robinson B.W. The John Rylands 'Laylā wa Majnūn and the Bodleian 'Nawāī' of 1485: a royal Timurid manuscript. Risola (1954) | Bertels E.E. “Абдурахман Джами и его дружба с Навои”. Ilmiy maqola (1965) |
| Meredith-Ouens G.M. “Handlist of Persian Manuscripts Acquired by the British Museum 1895-1966” (1968) | Borovkov A.K. “Изучение жизни и творчества Алишера Навои”. Ilmiy maqola (1940) |
| Bloshe E. “Peintures de manuscrits arabes, persans et turcs de la Bibliothèque nationale”. Ilmiy maqola (1911) | Borovkov A.K. “Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка”. Ilmiy maqola (1954) |
| Stenilend A.A. “New Diwan (h/t Alisher Navoi)”. Risola (2021) | Semyonov A.A. “Городская художественная рукопись эпохи Навои и ее творцы”. Ilmiy maqola |

| | |
|--|--|
| | (1940) |
| | Semyonov A.A. “Взаимоотношения Алишера Навои и султана Хусейн-Мирзы”. Ilmiy maqola (1960) |
| | Boldirev A.N. “Алишер Навои в рассказах современников”. Ilmiy maqola (1946) |
| | Malov S.E. “Мир Алишера Навои в истории тюркских литератур и языков Средней Азии”. Ilmiy maqola (1947) va boshq. |

Yuqoridagi jadvaldan shunday xulosa chiqarish mumkin: Alisher Navoiy asarlari G‘arbiy Yevropa va rus sharqshunoslari tomonidan faol tadqiq etilgan.

2-jadval.

Alisher Navoiy asarlarining Yevropa tillari va rus tiliga tarjimalari qiyosi

| Tarjimalar | |
|--|--|
| Yevropa tillariga | rus tiliga |
| Braun E.G. “Majolis un-nafois” | Boldirev A.N. «Majolis un-nafois» |
| Belin F.A. “Majolis un-nafois” | Bertels E.E. «Majolis un-nafois» |
| Belin F.A. “Farhod va Shirin” | Penkovskiy L. «Farhod va Shirin» |
| Belin F.A. “Lison ut-tayr” | Ivanov S.N. «Lison ut-tayr» |
| Katremer E.M. “Muhokamat ul-lug‘atayn” | Malexova A.N. «Lison ut-tayr» |
| Gets M. “Muhokamat ul-lug‘atayn” | Kononov A.N. «Muhokamat ul-lug‘atayn» |
| Staniland E. “Yangi devon” she’rlar to‘plami | Lebedev N.F. «Navoiy g‘azallari va she’rlari» |
| Balp J.P. “Navoiy g‘azallari” | Rojdestvenskiy S. «Navoiy g‘azallari» |
| Wetselya B.I. “Sab‘ai sayyor” | Ivanov S.N. «Navoiy g‘azallari, tuyuqlari, ruboiylari» |
| | Lipkin S. «Sab‘ai sayyor» |


Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning bir nomdagi asarlari ham Yevropa, ham rus sharqshunoslari tomonidan tarjima qilingan va ko‘pincha turli nomlar hamda turli to‘plamlarda nashr etilgan.

Yevropa va rus sharqshunoslarining XX–XXI asrlardagi Alisher Navoiy ijodiy faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlari qiyosi navoiyshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti to‘g‘risida xolisona xulosalar chiqarishga yordam beradi. Yevropa va Rossiya olimlari tomonidan yaratilgan ushbu asarlarning eng katta qismini shoir ijodiga bag‘ishlangan maqolalar tashkil qiladi. Ikkinchi o‘rinni kataloglashtirish egallaydi, bu borada Yevropa sharqshunoslari asarlarining salmog‘i sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Uchinchi o‘rinni rus navoiyshunoslarining ulkan xizmatlari asosida yaratilgan tarjima ishlari, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha dissertatsiya va monografiyalar band qiladi. Bu borada, ayniqsa, A.K.Borovkov,

V.V.Bartold, E.E.Bertels, I.V.Zaytsev, S.L.Volin va boshqa mashhur sharqshunoslarning Navoiyning ijodiy xususiyatlarini o‘rganishga qo‘shgan katta hissasini alohida qayd qilish o‘rinli. Quyidagi diagrammada ana shu ilmiy ishlarining miqdoriy tahlili – qiyosiy gistogrammasi keltirilgan:

1-diagramma

XX-XXI asrlarda Alisher Navoiy ijodini o‘rganish tarixiga oid Yevropa va Rossiya sharqshunoslari tadqiqotlarining tahlili



Bu gistogramмага qo‘shimcha sifatida navoiyshunoslik borasida qilingan ishlar qatoriga ko‘plab lug‘atlar, risolalar chop qilinganligini va ilmiy anjumanlar tashkil etilganligini ham qo‘shish lozim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“XX asr rus navoiyshunosligi”** deb nomlanadi. Unda ushbu davrdagi rus navoiyshunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida umumiy ma’lumot keltirilgan, S.N.Ivanov va A.N.Malexovalar tarjima ishlarining xususiyatlari o‘rganilgan va XX asr navoiyshunosligining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi **“Ilmiy asarlar: rus navoiyshunosligiga oid tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan. Ma’lumki, ilmiy jamoatchilik tomonidan XX asrda rus navoiyshunosligi eng yuqori cho‘qqiga chiqqanligi va bu davrni uning “oltin davri” deb atash mumkinligi ta’kidlanadi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi faktik tarixiy materiallar M.Nikitskiy, A.N.Samoylovich, N.I.Konrad, E.E.Bertels, A.N.Kononov, V.V.Bartold, A.A.Semenov, I.N.Berezin, S.N.Ivanov va A.Malexova kabi rus olimlari tomonidan taqdim etilgan. A.Rustamov, A.Qayumov, U.Satimov, G.Xalliyeva, I.Mirzayev, G.Nurova kabi o‘zbek olimlarining Navoiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan biz tahlil qilayotgan mavzuga bevosita va bilvosita aloqador ilmiy izlanishlarini alohida ta’kidlash lozim¹³.

¹³ Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.; Сатимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении: Дисс.... докт.

“S.N.Ivanov va A.N.Malexovaning tarjima asarlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda Alisher Navoiy asarlarini rus tiliga tarjima qilishda ushbu tarjimonlarning hissasi masalasi ko‘rib chiqildi. Jumladan, S.N.Ivanov o‘zining samarali tarjimonlik faoliyati davomida nafaqat eski o‘zbek tili, balki ozarbayjon, tatar, turkman va boshqa turkiy tillardan ham she‘riy hamda nasriy matnlarni tarjima qilgan. Ushbu mutarjim o‘zbek mumtoz asarlarini rus tiliga tarjima qilishga o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Uning xizmatlari tufayli Z.M.Bobur, Gadoiy, Munis Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy, Hofiz Xorazmiy, Mashrab, Furqat, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa ijodkorlarning betakror asarlari rusiyzabon o‘quvchi e’tiboriga havola etildi.

S.N.Ivanov o‘zbek mumtoz asarlar tarjimasida o‘ziga xos uslub yarata oldi. Ushbu fikrimizni Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidan ushbu parchaning tarjimasi ham isbotlaydi:

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tengri hamdi birla og‘oz aylagay.
Ulki maxluqot xalloqidur ul,
Ondin o‘zga foni-yu, boqiydur ul.

Пой, о птица души, сокровенное слово,
Речь веди в прославление творца всеблагого.
Он – создатель всех тварей, их плоти и тел,
Он и в тленном и в вечном – везде без предела.

1967-yilda S.N.Ivanov Alisher Navoiy she‘riyatini tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan maqolasida turkiy tildagi mumtoz shoirlar, xususan, Navoiy asarlarini tarjima qilish bilan ham tanilgan N.F.Lebedevning tarjima mahoratini yuqori baholaydi. S.N.Ivanov N.F.Lebedev tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarning muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan omillarni alohida ta’kidlaydi¹⁴.

Buyuk shoir Alisher Navoiy asarlarini, ayniqsa, g‘azallarini boshqa tilga tarjima qilish juda murakkab jarayon sanaladi. Bu ishni o‘z zimmasiga olgan tarjimon yuksak ilmiy-ijodiy iste’dodga, shoirlik qobiliyatiga, nozik didga ega bo‘lishi kerak va o‘tkir zehnga, his qilish qobiliyati va klassik adabiyot qonun-qoidalarini puxta egallagan bo‘lishi va tarjimada asliyatga mos so‘zni tanlash, turli tuyg‘ularni ochib bera olishi orqali o‘sha shoir g‘azallarining she‘riy tili sirlaridan xabardor bo‘lishi lozim.

Alisher Navoiyning lirik asarlarini tarjima qilgan S.N.Ivanovdan tashqari, A.N.Malexovaning (1938–2009) tarjimalari ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Jumladan, 1970-yilda hazrat Navoiyning “Muhokamat al-lug‘atayn” asari uning tarjimasida nashr etilgan. Ayniqsa, ushbu asardagi qit‘alar tarjimasi diqqatga sazovordir:

филол. наук: 10.01.03. – М., 1998; Халлиева Г.И. XX аср рус шарқшунослигида ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи: Филол. фан. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 284 б.; Мирзаев И.К., Нурова Г.Т. Изучение жизни и творчества Алишера Навои в России. – Самарканд, 2021.

¹⁴ Иванов С. Подлинно и вольно / Заметки о переводах лирики Алишера Навои // Звезда Востока, 1967. – № 7. – С. 133-138.

So‘z gavharedurki, rutbasining
Sharhidadur ahli nutq ojiz,
Andinki erur xasis muhlik,
Ko‘rg‘uzguchadur Masih mo‘jiz.

Слово – такое сокровище, что даже
Мужи красноречия бессильны в толковании его достоинств.
Им подлый может совершать убийство,
Им же и Мессия является чудо¹⁵.

Har bir tarjima asarida milliy o‘ziga xoslik, milliy ruh, umuman, shu xalqqa xos milliy kolorit va o‘ziga xos xususiyatlari saqlanib qolishi kerak. Aks holda, original asar milliy tusdan mahrum bo‘lib, yaroqsiz asardek tasavvur paydo qilishi mumkin. Tarjima qilishda A.N.Malexova sharqona she‘riyatga xos turg‘un birikmalardan foydalanadi. Masalan: “mengislari gul-gul” – “chehrasi atirgul misol”.

A.N.Malexovaning tarjimalarini tahlil qilish uning tarjimonlik strategiyasining quyidagi xususiyatlarini aniqlashga yordam berdi:

– A.N.Malexova lakuna birliklarni tarjima qilish masalalariga ijodiy yondashadi, tegishli joylarda baytning mohiyatini mazmunan rivojlantiradi. Shu bilan birga, u original asar bir necha asr oldin boshqa madaniy muhitda yaratilganligini e‘tiborsiz qoldirmaslikka harakat qiladi.

– A.N.Malexova tarjimaning muayyan tamoyillariga amal qilmagan, chunki turli janrdagi asarlarni tarjima qilgan. Biroq, umuman olganda, uning o‘zga tilidagi matnni talqin qilish uslubini ifodalovchi individual xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

– Navoiy asarlarini tarjima qilish borasida A.N.Malexovaning ijod mahsullari S.N.Ivanov tarjimalaridan son va ko‘lam jihatidan qolishadi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi **“XX asr navoiyshunosligining asosiy yo‘nalishlari”**ga bag‘ishlangan. XX asr navoiyshunosligiga oid barcha ilmiy tadqiqotlarning birlashtiruvchi xususiyati shundaki, Alisher Navoiy barcha tadqiqotlarda betakror shaxs, iste‘dodli shoir, mutafakkir sifatida gavdalanadi. Ularda ham biografik ma‘lumotlar, ham shoirning ijtimoiy-siyosiy faoliyati tadqiqotchilar tomonidan batafsil bayon etiladi. Navoiyning turkiy va fors tillarini yuksak darajada bilganligi va bu ikki tilda birdek noyob asarlar yaratgani alohida ta‘kidlanadi. Abdurahmon Jomiyning o‘zi ham mashhur fors shoirilarining tasavvuf an‘analariga sodiq bo‘lib, shogirdi – Alisherni ham asta-sekin ushbu ta‘limot bilan tanishtirganini alohida ta‘kidlash joiz.

Kommunistik mafkura tomonidan diniy qarashlar qoralangani bois XX asr rus olimlari shoirning ba‘zi muhim asarlarida ko‘tarilgan din masalalariga (asosan, Navoiy asarlaridagi hamd va na‘t qismlariga) e‘tibor qaratmaslikka harakat qildilar. Ammo Alisher Navoiyning Xuroson markazidagi faoliyati davomida uning atrofida ijodkor ziyolilar to‘plangani rus tadqiqotchilari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotchilar shaharni obodonlashtirish, xususan, masjidlar qurish, suv omborlari,

¹⁵ Алишер Навои. Суждение о двух языках. // Перевод А.Н. Малеховой. – Ташкент, 1970. – С. 107-108.

to'g'on va ko'priklar barpo etishda Alisher Navoiy shaxsiyatining ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

